

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI****ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA  
ADABIYOTI UNIVERSITETI****MALAKAVIY AMALIYOTNING****ISHCHI O'QUV DASTURI  
(1-kurs)**

**Bilim sohasi:** 200 000 – San'at va gumanitar fanlar  
**Ta'lim sohasi:** 230 000 – Tillar  
**Ta'lim yo'nalishi:** 60230200– Tarjima nazariyasi va amaliyoti (fransuz tili)

### Adabiyotlar ro'yxati:

1. Barkamol avlod O'zbekiston tarakkiyotining poydevori I.A.Karimov. TOSHKENT-1998
2. O'zbekiston davlat standarti. O'zbekiston uzluksiz ta'limning davlat standartlari tizimi 5220600- Tarjima nazariyasi va amaliyoti yunalishi buyicha bakalavr tayorligi darajasi va zaruriy bilimlar mazmuniga qo'yiladigan talablar. Rasmiy nashr Toshkent-2006
3. O'zbekiston respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. Oliy ta'lim. Me'yoriy -huquqiy va uslubiy hujjatlar to'plami. Toshkent- 2004.

6.	Ushbu amaliyot o'tayotgan hududdagi muzey va diqqatga sazovor joylarni nomlarini fransuz tilida o'rganish.	
7.	Amaliyot o'tayotgan hududdagi muzey va diqqatga sozovor joyda barpo etilgan inshootlar, musey ichidagi har bir eksponatlar va xaykallar xaqida ma'lumotlar yig'ish.	
8.	Yigilgan barcha ma'lumotlarni fransuz tiliga tarjima qilish va fransuz tilida tushuntirish.	
9.	Yakka tartibda va jamoa bo'lib ishlashni yo'lga qo'yish tarixiy joy nomlari, ularning kelib chiqishi, etimologiyasi haqida ma'lumotlarni yozib olish.	
10.	Fransuz tilida chiroyli ravon va xatolarsiz gapirish va tarjima qilishga erishish	
11.	Amaliyot kundalik daftariga kerakli ma'lumotlarni yig'ib borish.	
12.	Amaliyot o'tayotgan hududdagi muzeylarning kelib chiqish tarixini o'rganish va yigilgan materiallar asosida matn tayorlash.	
13.	Shaxrimizning diqqatga sozovor joylarida intervyu olishni o'rganish.	
14.	Bu malakaviy amaliyot yuzasidan yakuniy hisobot tayyorlash.	
15.	Amaliyot yuzasidan tayyorlangan yakuniy hisobotni fakultetdagi amaliyot rahbariga topshirish va o'zi to'plagan reyting balini bilish. Amaliyot bo'yicha o'tkaziladigan yakuniy anjumanga qatnashish.	

### Tarjimonlik amaliyoti hujjatlari

Malakaviy amaliyotning sifatli va samarali yuritilishi ko'p jihatdan amaliyot jarayonida talab qilinadigan hujjatlarning to'g'ri, to'liq va o'z vaqtida to'ldirib borilishini taqozo etadi. Malakaviy amaliyot davomida quyidagi hujjatlar yuritiladi:

1. Amaliyot kundaligi.
2. Amaliyotchi-talabanning shaxsiy ish rejasi.
3. Amaliyotchi-talabaga muassasa tomonidan berilgan tavsifnoma.
4. Amaliyot hisoboti (taqdimot, elektron disk va yozma shaklda)

Ishchi fan dasturi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti O'quv-uslubiy kengashining 2021 yil "\_\_\_" \_\_\_\_\_ dagi "\_\_\_" -sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.

Ishchi fan dasturi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida ishlab chiqildi.

**Tuzuvchilar:**

M.Abdurahmonova  
Z.Bekmurodova

ToshDO`TAU "Xorijiy tillar" kafedrası o'qituvchilari.

**Taqrizchilar:**

N.Rashidova

ToshDO`TAU "Xorijiy tillar" kafedrası mudiri

N.Do'stmamatova

ToshDO`TAU "Xorijiy tillar" kafedrası o'qituvchisi.

O'zbek-ingliz tarjima fakulteti dekani:  
2021 yil "\_\_\_" \_\_\_\_\_



A.Sayfullayev

"Xorijiy tillar" kafedrası mudiri.  
2021 yil "26" 08



N.Rashidova

## Mundarija

1. So'z boshi.....	4
2. Amaliyotning o'tkazilishi bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar.....	5
3. Malakaviy amaliyotning maqsadi va asosiy vazifalari.....	6
4. Amaliyotchi talabalarning vazifalari.....	10
5. Baholash tartibi.....	11
6. KALENDAR REJASI.....	11
7. Tarjimonlik amaliyoti hujjatlari.....	13
8. Tarjimonlik amaliyoti hujjatlari.....	13
9. Adabiyotlar ro'yxati.....	13

### Amaliyotini o'tkazishda yangi texnologiyalar

Diktofon, videokamera, fotoapparat, ovoz yozib olish va tasvirga tushirish imkoniyati bo'lgan telefonlardan foydalaniladi.

### Baholash tartibi

Talabalar amaliyot davrida to'plagan materiallari quyidagilar asosida tekshirilib, baholanadi:

	Og'zaki shaklda tayorlangan materiallarning originalganligi.	30 ball
	Yozma shaklda tayorlangan materiallarning o'rganilganligi.	30 ball
	Fransuz tilida o'rgangan elementlarni tushuntirishi	20 ball
	Kommunikatsiya hosil qilish.	20 ball
<b>JAMI</b>		100 ball

Bunda:

86 dan 100 balgacha "5" baho;

71 dan 85 gacha "4" baho;

55 dan 70 gacha "3" baho;

0 dan 54 balgacha "2" baho.

60230200– Tarjima nazariyasi va amaliyoti (fransuz tili)  
yo'nalishi 1-kursida "Fransuz tili" fanidan amaliyotni o'tkazishning

### KALENDAR REJASI

No	Amaliyot davrida bajarilgan ishlar mazmuni	Bajarilganligi haqida belgi
1.	Amaliyot o'tkazishga doir maslahatlarni talabalarga aytish.	
2.	Amaliyot o'tkazilayotgan hududni o'rganish.	
3.	Mazkur amaliyot o'tkazilayotgan hudud rahbarlari va amaliyot o'tovchi talabalarga ma'sul shaxs bilan tanishish.	
4.	Amaliyot xududidagi xar bir diqqatga loyiq joylarni o'rganish	
5.	Rejalashtirilgan holda amaliyot o'tayotgan hududning , tarixiy manbaalrni o'rganish	

tartibga solishga ko'maklashadi;

4) ichki tartib qoidalar, hayot va yong'in xavfsizligi, sanitariya va gigiena qoidalari bo'yicha mashg'ulot va suhbatlar uyushtiradi. Ushbu qoidalarga talabalarning qat'iy rioya qilishlarini ta'minlaydi;

5) qo'shimcha ma'ruzalarni mazmunli o'tkazish choralari ko'radi;

6) talabalarning amaliyot kundaligi yuritishlarini, bajarayotgan ishlari va olib borayotgan yozuvlarini tekshirib, kuzatib boradi va zaruriy maslahatlar beradi;

7) malakaviy amaliyot davrida talabalarning bo'sh vaqtlarini ko'ngilli va mazmunli o'tkazish chorasini ko'radi;

8) talabalarning kundaligi va hisobotlarini qabul qilib oladi va komissiyaga taqdim qiladi;

9) malakaviy amaliyot yakuni bo'yicha kafedra mudiriga hisobot beradi.

Amaliyotdan keyin bir hafta muddatda talabalar hisobot tayyorlaydi va kundalik hamda boshqa hujjatlar bilan birga amaliyot rahbariga topshiradi. Asosiy hisobot shakli kundalik topshiriqlar va uning natijasi xaqidagi ma'lumot hisoblanadi. Hisobotda talaba tomonidan bajarilgan ishlar mazmuni va bajarilishi haqidagi ma'lumotlar, xulosa, taklif va mulohazalar keltiriladi. Kundalik va hisobot ta'lim muassasi uchun belgilangan shaklda yoziladi.

Hisobot belgilangan kunda maxsus komissiya oldida himoya qilinadi. Komissiya tarkibiga fakultet va ob'ekt amaliyoti rahbari, fakultetning professor-o'qituvchilari kiritiladi. Hisobotni baholash amaldagi baholash tizimi asosida o'tkaziladi. Talaba faoliyatini baholashda tashkilot tomonidan talabaga berilgan tavsifnoma e'tiborga olinadi. Amaliyot yakuni fakultet ilmiy kengashi yoki ishlab chiqarish majlislarida muhokama qilinadi. Amaliyotga uzrli sabablarga ko'ra qatnasha olmagan talabalar amaliyotni o'tashlari uchun tashkilotga takroran (ta'til paytida) yuboriladi;

Amaliyotga uzrsiz sabablarga ko'ra bormagan va amaliyot dasturini bajarmagan, shuningdek, faoliyati qoniqarsiz baholangan talabalar akademik qarzdor hisoblanadi va talabalar sifatidan chiqarilishi mumkin.

**Amaliyotchi talabalarning vazifalari.**

Talaba amaliyot dasturida ko'zda tutilgan barcha ishlarni bajaradi, malakaviy amaliyotga talab darajasida tayyorgarlik ko'radi va shug'ullanadi.

Talaba amaliyotni o'tkazish tartibiga amal qilishi, amaliyot mobaynida faol qatnashishi, ichki tartib-qoidalariga rioya qilishi, amaliyot rahbarining talabalarini bajarishi shart. Bu talablarni bajarishdan bo'yin tovlagan talaba amaliyot davomida amaliyotdan chetlashtiriladi.

Amaliyot davomida har bir talaba kundalik tutadi. Bunda har kunlik bajarilgan tarjimonlik ishlari, uning natijasi va tahlili bayon qilinadi. Shuningdek, tarjima bo'yicha beriladigan ko'rsatmalarning konspektlari va rejalarini to'plab boradi.

Amaliyot oxirida har bir talaba o'z faoliyati bo'yicha hisobot tayyorlaydi. Hisobotga kundalik, amalga oshirilgan tarjimalar, uslubiyatchi o'qituvchi hamda rahbarning xulosalari, amaliyotni o'tkazish va tarjima jarayonini takomillashtirish bo'yicha mulohaza va takliflar tayyorlaydi. Hisobot maxsus amaliyot komissiyasi tomonidan qabul qilinadi.

### So'z boshi

O'zbekiston Respublikasi mustaqilligi bilan adolatli, demokratik va huquqiy jamiyatning kelajagi bo'lmish yosh avlodning yangicha fikrlashi hamda ma'naviy-axloqiy tarbiyasini takomillashtirish zamon talabi va davlatimiz taraqqiyotida hal qiluvchi omillardan biriga aylandi.

Yuqorida keltirilgan vazifalarni amalga oshirish borasida O'zbekiston Respublikasida salmoqli ishlar amalga oshirildi. Xususan, respublikada "Kadrlar tayyorlashning milliy dasturi", "Ta'lim to'g'risidagi Qonun" kabi hujjatlar qabul qilindi. Bu hujjatlar asosida O'zbekiston o'z ta'lim tizimini isloh qildi, o'ziga xos va mos taraqqiyot yo'lini belgilab oldi.

Ta'lim sohasida qabul qilingan qonun xujjatlari ta'lim-tarbiyaning barcha bosqichlarida, ya'ni maktabgacha ta'lim muassasalari, maktab, o'rta maxsus ta'lim muassasalari, akademik lits 'eylar va oliy o'quv yurtlarida ta'lim-tarbiya oluvchi har bir o'quvchiga alohida shaxs sifatida yondashish va ularning imkoniyat hamda qobiliyatlarini rivojlantirish kabi muhim masalalarni hal qilish ilgari surilgan.

Ushbu ishchi dasturda talabalar malakaviy amaliyotning maqsad va vazifalari, mazmuni, tashkil etish yo'llari bilan bir qatorda malakaviy amaliyot olib boriladigan muassasalarda tarjimonlik kasbining o'ziga xos xususiyatlarini kuzatish, bu yo'nalishda ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishga o'rgatish uchun mo'ljallangan tajriba-sinov ishlarini tashkil etish uslublari, hamda bu jarayonda talabalarning tarjimonlik faoliyatini tashkil etish, tarjimonlik ob'ekti bo'yicha referat yozish va malakaviy amaliyoti oxirida yoziladigan hisobotni tuzish namunalari, amaliyotchi talabalarning kalendar ish rejalarini, kuzatish buyicha kundalik daftarlari va boshqa amaliyot hujjatlari bilan bir qatorda, ob'ektlarda o'tkaziladigan mashg'ulotlarning namunalari keltirilgan. Bulardan tashqari, tarjimonlik amaliyotiga rahbarlik qiluvchi kafedra va o'qituvchilar xamda malakaviy amaliyot o'tkaziladigan muassasa rahbariyatining vazifalariga ham alohida urg'u berilgan.

Ushbu dastur tarjimonlik yo'nalishi bakalavr bosqichi talabalari, malakaviy amaliyotga rahbarlik qiluvchi o'qituvchilar va malakaviy amaliyotni o'tkazishga jalb qilingan mas'ullarga mo'ljallangan bo'lib, tarjimonlik yo'nalishi talabalarining amaliyot ko'nikmalari sifatini yaxshilashga xizmat qiladi.

### AMALIYOTNING O'TKAZILISHI BO'YICHA USLUBIY KO'RSATMALAR

Fransuz yo'nalishidagi amaliyot o'tovchi talabalarining shaxrimizdagi diqqatga sozovor joylarini va odamlar hamda xorijlik turistlar tashrif buyuruvchi muzeylar xaqida ma'lumotlar to'plash va yigilgan materiallarni fransuz tiliga tarjima qilish asosiy vazifalaridan biridir. Shu munosabat bilan amaliyotchi talabalarni shu sohada ko'nikmasini oshirishga o'rgatadi.

Fransuz tili amaliyoti bo'yicha talabalarining bilim, ko'nikma va malakalariga quyidagi talablar qo'yiladi. *Bunda:*



- Talabalarda fransuz tilida ogʻzaki va yozma tarjima namunalari farqlashi va ularni matn sifatida yozib olishlari, yozib olingan matnlarning mukammallik darajasi koʻnikmalarini shakllanganligi;
- Talabalarda oʻrganilayotgan fanini amaliyot yordamida chuqur oʻrgatishni taʼminlash.
- talabalarning yigʻilgan materiallar ustida ishlash imkoniyatlari, yozib olingan namunalarga ishlov berish haqidagi bilim va koʻnikmalarga ega boʻlishi;
- talabalar bir biri bilan xorijiy tilda toʻplangan materiallar yuzasidan axborit berish koʻnikmasini shakllantirish.

**Malakaviy amaliyotning maqsadi va asosiy vazifalari.**

Respublikamizda «Kadrlar tayyorlashning milliy dasturi» da koʻzda tutilgan asosiy yoʻnalishlaridan biri - boʻljak mutaxassislarining kasbiy tayyorgarlik sifatini yaxshilashda malakaviy mahoratning zamonaviy shakl va metodlaridan foydalanish, nazariya va amaliyotning birligiga oid talablarni izchillik bilan amalga oshirishdir.

Oʻquv jarayonining ajralmas qismi boʻlmish malakaviy amaliyot xalq xoʻjaligining turli sohaslarida faoliyat koʻrsatayotgan muassasa va korxonalar uchun tarjimonlik kasbini tanlab olgan mutaxassislar tayyorlash asosini tashkil etadi.

«Oʻzbekiston Respublikasi Oliy taʼlim muassasalari talabalarining malakaviy amaliyoti» haqidagi Nizomning umumiy qoidalar boʻlimida bu haqida «Bakalavriat yoʻnalishlari va magistratura ixtisosliklari boʻyicha mutaxassislar tayyorlashning muhim qismi boʻlgan talabalar amaliyoti -ilgʻor korxonalar, muassasalar va tashkilotlarda oʻtkaziladi», deyilgan. Nizomda, shuningdek, "bu amaliyot, talabalar bilimlarining nazariy qismini mustahkamlash uchun zarur boʻlgan, oʻqish jarayonining bevosita davomi hisoblanadi" deb koʻrsatilgan.

Shu tufayli ham, oʻzbek-ingliz tarjima yoʻnalishi talabalarida tarjimonlik amaliyoti jarayonida bu kasb uchun zarur amaliy koʻnikma, malaka va mahoratlarni shakllantirish uchun zarur sharoit yaratiladi.

Malakaviy amaliyoti muayyan fan (yoki fanlar) boʻyicha olingan nazariy bilimlar va amaliy malakalarni mustahkamlash, chuqurlashtirish va kengaytirish uchun zarur boʻlgan, hamda tarjimonlik jarayonining maxsus jihozlangan yoki tabiiy sharoitlarga maksimal yaqinlashtirilgan obʻektlarda oʻtkaziladigan oʻquv jarayonining davomi hisoblanib, barcha talabalar uchun majburiydir. Malakaviy amaliyot sayyoxlik bazalarida, tarjimonlik - ishlab chiqarish laboratoriyalarida, tegishli sharoitlar mavjud boʻlgan korxonalar, tashkilot va muassasalarida, shuningdek, kafedra qoshidagi maxsus jihozlangan xonalarda va boshqa amaliyotni oʻtkazish maqsadiga muvofiq jihozlangan joylarda oʻtkaziladi.

Malakaviy amaliyot dasturi taʼlim yoʻnalishi boʻyicha Davlat taʼlim standartida belgilangan malakaviy talablar asosida ishlab chiqiladi va oliy taʼlim muassasasi Oʻquv-uslubiy kengashi tavsiyanomasiga koʻra rektor tomonidan tasdiqlanadi. Dasturda

Malakaviy amaliyotni amalga oshirishda birlashtirilgan kafedra mudiri zimmasiga quyidagi muhim vazifalar qo'yiladi:

- 1) malakaviy amaliyot bo'yicha umumiy nazoratni amalga oshiradi;
  - 2) OTM amaliyot rahbari bilan birgalikda amaliyot o'tkazish haqidagi rektor buyrug'ini loyihalashtiradi;
  - 3) amaliyot boshlangunga qadar shartnoma tuzilgan amaliyot ob'ekti bilan aloqa o'rnatadi hamda amaliyot tartiblari va shartlarini kelishib oladi;
  - 4) amaliyot bo'yicha rahbar bilan birgalikda tarjimonlik amaliyoti ishchi dasturini tuzadi, amaliyot ob'ekti imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda umumiy va yakka tartibdagi topshiriqlarni belgilaydi;
  - 5) malakaviy amaliyotini kerakli jihoz va anjomlar, zaruriy me'yoriy xujjatlar bilan ta'minlash chorasini ko'radi;
  - 6) amaliyot oldidan bo'lib o'tadigan tashkiliy yig'ilishni uyushtiradi, talabalarni amaliyot rahbarlari dasturi bilan tanishtiradi;
  - 7) amaliyotga rahbar etib tayinlangan o'qituvchiga malakaviy amaliyotni yuqori saviyada mazmunli o'tkazish bo'yicha zaruriy ko'rsatmalarni beradi;
  - 8) amaliyotni zaruriy me'yoriy hujjatlar va ko'rsatmalar bilan ta'minlaydi, talabalarni ob'ektga borishni tashkil qiladi;
  - 9) ishchi amaliyot dasturini tuzish ishlarida ishtirok etadi;
  - 10) hayot va texnika xavfsizligi, sanitariya va gigiyena qoidalari bo'yicha instruktaj o'tkazadi;
  - 11) tarjimonlik amaliyotining sifatli, talab darajasida va o'quv dasturiga muvofiq holda o'tkazilishini, amaliyot muddatiga rioya qilinishini nazorat qiladi;
  - 12) tashkil qilinadigan qo'shimcha o'quv mashg'ulotlari, ma'ruzalarni tekshirib turadi;
  - 13) amaliyot ob'ektida yetarli shart-sharoitlar bo'lishini, talabalar tomonidan hayot xavfsizligiga rioya qilinayotganligi, moddiy-texnik vositalarning saqlanishi va ishlatilishi, talabalar tomonidan ichki tartib - qoidalarga rioya qilinishini nazorat qilib turadi;
  - 14) amaliyot yakuni bo'yicha hisobot qabul qiladi va talabalar faoliyatini baholashda ishtirok etadi;
  - 15) malakaviy amaliyoti bo'yicha me'yoriy xujjatlar tartib qoidalarini takomillashtirish, amaliyot sifatini oshirish chorasini ko'radi;
  - 16) komissiya a'zosi sifatida talabalar hisobotining himoyasida ishtirok etadi;
  - 17) amaliyot yakuni bo'yicha fakultet kengashiga hisobot beradi.
- Malakaviy amaliyotni o'tkazishda har bir guruh uchun uslubchi-amaliyot rahbari tayinlanadi. Uslubiy rahbarning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat bo'ladi:
- 1) kafedra mudiri bilan birga ishchi o'quv dasturi tuzadi va talabalar uchun topshiriqlar tayyorlaydi;
  - 2) amaliyot ob'ektiga oldinroq borib, ob'ektni talabalarni qabul qilishga tayyorlaydi;
  - 3) talabalarni umumiy va yakka tartibda topshiriqlar mazmuni bilan tanishtiradi va uni bajarish bo'yicha zaruriy ko'rsatmalar beradi, uslubiy yordam uyushtiradi hamda topshiriqlarning o'z vaqtida sifatli bajarilishini nazorat qiladi. Material yig'ish va

2. Malakaviy amaliyotning birinchi (tanishuv) qismida talabalarga amaliyot ob'ektning tuzilishi, uning o'ziga xos jihatlari, ob'ekt inshootlari turi va joylashishi bilan tanishtirilib, u erda olib borilayotgan amaliy ishlar, erishilayotgan muvaffaqiyatlar, yuqori ko'rsatgichga erishgan mutaxassislar haqida ma'lumot beriladi. Amaliyot boshlanishi oldidan talabalar ob'ektning o'zida hayot va yong'in xavfsizligi, gigiyena va sanitariya qoidalari, ichki tartib qoidalar va ish rejimi bo'yicha instruktajdan o'tishlari shart. Shuningdek, talabalarga o'quv amaliyoti dasturi, unga oid topshiriqlar va uni bajarish yo'llari haqida ma'lumot beriladi.

3. Malakaviy amaliyotning ikkinchi qismida talabalar amaliyot dasturida belgilangan umumiy va yakka tartibda amalga oshiriladigan topshiriqlarni bajaradilar, sohaga oid vazifalarni hal qilish usullarini o'rganadilar, mustaqil faoliyat ko'rsatish bo'yicha dastlabki ko'nikmalarni egallaydilar va kasbga doir texnik vositalar va jihozlardan foydalanishni o'rganadilar. Shuningdek ish jarayonini tashkil qilishning ilg'or texnologiyalari bo'yicha malakali mutaxassislar tomonidan o'tiladigan ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarda ishtirok etadilar.

**Malakaviy amaliyotni tashkil qilish va o'tkazish**

Malakaviy amaliyot Oliy o'quv yurti amaliyot rahbari, fakultet dekani va tegishli kafedra mudiri hamda amaliyotga bevosita rahbarlik qiladigan mas'ul o'qituvchi tomonidan amaliyot ob'ekti rahbariyati bilan tuzilgan shartnoma asosida tashkil qilinadi. Yuridik shaxslar bilan tuzilgan shartnoma asosida o'qitilayotgan talabalar ushbu shaxslar talabi bo'yicha amaliyot o'tash uchun tegishli ob'ektga yuborilishi mumkin. Amaliyotni belgilangan talablar asosida tashkil qilish va o'tkazilishi uchun javobgarlik o'quv ishlari prorektori zimmasida bo'ladi.

Malakaviy amaliyot maxsus sharoitlar va jihozlarga ega bo'lgan ob'ektlarda hamda amaliyot uchun mos faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar, tashkilot va muassasalarda o'tkaziladi. Amaliyot ob'ekti sifatida, odatda, ta'lim muassasasiga yaqin muassasalardan foydalaniladi.

Malakaviy amaliyotning hujjatlari vazirlik me'yoriy hujjatlari asosida fakultet (tegishli kafedra) tomonidan o'quv bo'limi hamkorligida tayyorlanadi va belgilangan tartibda tasdiqdan o'tkaziladi.

Kasb bo'yicha eng ilg'or yutuqlar, yangi texnologiyalar, ishni ilmiy tashkil qilish, boshqarish tizimi va boshqa masalalar bo'yicha malakali mutaxassislarning ma'ruzalari fakultet dekani va kafedra mudiri tomonidan tashkil etiladi.

Amaliyot jarayonida talabalarga quyidagi vazifalar qo'yiladi:

- 1) malakaviy amaliyot dasturida ko'zda tutilgan topshiriqlarni to'liq bajarish;
- 2) amaliyot ob'ektning ichki tartib-qoidalariga, hayot xavfsizligi, gigiyena va sanitariya qoidalariga qat'iy rioya qilish;
- 3) kundalik yuritish va unda ob'ekt to'g'risidagi dastlabki taassurotlar, berilgan topshiriqlar, uning ijrosi, tahlili va xulosalarini qayd etib borish;
- 4) amaliyot rahbarining boshqa ko'rsatmalariga to'liq amal qilish va barcha qo'shimcha tadbirlarda faol ishtirok etish;
- 5) kundalik va yozma hisobotni o'z vaqtida amaliyot rahbariga topshirish hamda hisobotni komissiya oldida himoya qilish;

amaliyotning maqsad va vazifalari, mazmuni va muddati belgilab beriladi. O'quv dasturi har besh yilda, ishchi o'quv dasturi esa amaliyot o'tkaziladigan ob'ektning xususiyatlari va imkoniyatlari hisobga olingan holda har yili qayta ishlab chiqiladi va belgilangan tartibda tasdiqdan o'tkaziladi. Malakaviy amaliyot amaliyot o'quv grafigidagi belgilangan vaqt va muddat davomida rektor buyrug'i asosida o'tkaziladi.

Malakaviy amaliyotning sifatli tashkil qilinishi va samarali o'tkazi lishi uchun asosiy ma'sul OTM amaliyot rahbari va fakultet dekani hisoblanadi. Amaliyotga bevosita rahbarlik tegishli kafedra mudiri va kafedra tomonidan tayinlanadigan tajribali o'qituvchi (amaliyot bo'yicha , rahbar) tomonidan amalga oshiriladi.

Mutaxassisligi bo'yicha ishlayotgan talabalar o'quv amaliyotini o'quv rejasida va amaliyot dasturida belgilangan muddatda, belgilangan ob'ektda bevosita amaliyot bo'yicha mutasaddi o'qituvchisi rahbarligida o'tkazadilar. Malakaviy amaliyot zaruriy o'quv mashg'ulotlari va ma'ruzalar bilan qo'shib olib boriladi.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Tarjima nazariyasi va amaliyoti yo'nalishi (60230200 – tarjima nazariyasi va amaliyoti) o'quv rejasiga ko'ra talabalarning malakaviy amaliyoti bakalavriatning 1 kursida o'tkaziladi va 3 hafta muddatda davom etadi.

Talabalarning malakaviy amaliyoti tarjimonlar tayyorlashning muhim bosqichi bo'lib, qator maqsadlarni o'z oldiga qo'yadi. Bu davrda talabalar o'quv mashg'ulotlari jarayonida tinglangan "Tarjima nazariyasi va amaliyoti" va "Integrallashgan fransuz tili" kabi fanlardan olgan nazariy-ilmiy bilimlarini mustaxkamlashni amalga oshirishni ta'minlaydilar.

O'quv amaliyoti davomida talabalarga korxonalar, muassasa va tashkilotlarda tarjimonlik faoliyatini kuzatish, tarjimonlik faoliyati jarayonlarini rivojlantirib borish va malakaviy daraja taraqqiyotini o'rganish, tahlil qilish, baholash hamda malakaning bundan keyingi o'sishini mo'tadil ta'minlab borish maqsadida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni rejalashtirish o'rgatiladi.

Bo'lajak tarjimonlar auditoriyalarda olgan nazariy va amaliy bilimlarini teran darajada mustahkamlab, o'z faoliyatlari jarayonida xilma-xil metodik usullar va vositalarni sharoitga qarab o'zgartirish olish va ijodiy yondashish mumkinligiga ishonch hosil qilishlari va o'zlari tanlagan kasblariga oid amaliy malakalarni egallab borishlari uchun zarur imkoniyatlar yaratiladi. Buning natijasida tarjimonlik kasbiga asta-sekin moslashib borishlari ta'minlanadi.

Malakaviy amaliyotning asosiy mazmunini tashkil etuvchi faoliyat turlari quyidagilardan iborat:

1. Tanlangan kasbning xususiyatidan kelib chiqib o'quv amaliyoti talaba egallaydigan kasb bo'yicha ob'ektlar va uning ish faoliyati bilan tanishuv, kasb bo'yicha dastlabki ko'nikma va malakalarni egallash, kasbiy masalalar va muammolarni hal qilish usullarini o'rganish, biror fan (yoki fanlar) bo'yicha egallagan bilimlarni to'ldirish va kengaytirish, ishlab chiqarish sharoitida kasbiy topshiriqlarni bajarishga o'tish;